

Buxoro viloyati
Qorovulbozor tumani
Axborot – kutubxona markazi
Axborot-bibliografiya xizmati



“ Sardoba – sahro marvaridi ”
Qorovulbozor tumani sardobalari tarixi
Kitobxonga estalik

Qorovulbozor – 2026 yil

Kitobxonga estalik Axborot – bibliografiya xizmati tomonidan tuzildi.

Tuzuvchi : Axborot – bibliografiya xizmati rahbari : G.Axmedova

Sardoba - soʻzi fors tilidan olingan boʻlib, sard (sovuq), ob (suv) soʻzlaridan yasalgan. Bu nomning oʻzidayoq mazkur inshoot suvni saqlash uchun xizmat qilganligini bildiradi. Tumanimizda mavjud Boʻzachi hamda Qorovulbozor sardobalari aynan Abdullaxon II davrida qurilgani, yaʼni XVI asrga mansubligi yaqinda olimlar oʻtkazgan tekshirishlarda tasdiqlangan. Sardobalar Qorovulbozor shahridagi chuchuk ichimlik suvini yigʻish, saqlash va undan foydalanishga moʻljallangan gidrotexnik inshoot hisoblangan. Maʼlumki, bundan 2,5 ming yil ilgari Sharq bilan Gʻarbni bogʻlagan savdo yoʻliga asos solingan. Ilmiy manbalardan u “Buyuk ipak yoʻli” deb yuritiladi. Bu savdo yoʻli qadimgi Xitoyning Danʼxuan shahridagi ikki asosiy janubiy hamda shimoliy qismlarga ajratilgan. Uning shimoliy qismi Markaziy Osiyo hududidan oʻtgan. Bu savdo bepayon choʻli – sahrolarga toʻgʻri kelardi. Yer osti suvlarining yoʻlining aksariyat qismi ketishi va qurib qolishi tufayli yoʻlovchini suv tanqisligi muammosi doimiy qiynab kelgan. Ayniqsa jazirama oylarida bu muammo juda oʻtkirlashgan. Bu kishilarni choʻllardagi qor va yomgʻirlarning chuchuk suvlaridan foydalanishga majbur etgan. Suvdan samarali foydalanishga intilish ajdodlarimizni sardobaga oʻxshash inshootlarni barpo etishga undadi, bu inshootdagi suvning yerga singishini kamaytirish choralari koʻrib, suvning bugʻlanishini kamaytirish maqsadida bunday hovuzlarning usti yopilgan. Buxoro – Qarshi karvon yoʻli boʻyida beshta Sardoba : Qoʻsh , Boʻzachi, Qaqir, Buzurg va Qorovulbozor sardobalari haqida maʼlumotlar tarixiy manbalarda uchraydi. Hozirgi kunda Qorovulbozor hamda Boʻzachi sardobalari (“Oʻzbekiston” jamoa xoʻjaligining 5-brigadasi chegarasida) saqlanib , qolganlari 20-30 – yillarda buzulib, talon-taroj qilingan. Qorovulbozor sardobasi shahar markaziga yaqin, Sardobaning 3 ta darvozasi bor. Hovuzning kengligi 16 metr atrofida, chuqurligi 8 metrdan koʻproq. Gumbazning balandligi 6,4 metr. Aylana shaklidagi hovuz va uning ustini yopib turuvchi gumbaz shaklida qurilgan bu sardobaning darvozalaridan tashqari suv tushishi uchun moʻljallangan maxsus teshiklar va tepasida aylana shaklidagi tuynuk mavjud. Shuningdek, sardoba hovuzidan suv olish uchun moʻljallab qoldirilgan maxsus kirish joyi ham bor. Sardoba 27x27, 28x5,6 sm hajmdagi toʻrtburchak gʻisht bilan ganch tuprogʻI qorishmasidan qurilgan. Boʻzachi sardobasi Qorovulbozor sardobasidan ancha kichik. Ular orasidagi masofa 17 km.ga yaqin. Tuzilishi jihatidan ancha ixcham boʻlgan bu inshootning uchta deraza va kirish joyi bor. Diametri 13 metrga teng. Ayni paytda hovuzi koʻmilgan. Sardoba darvozalaridan tashqari, suv tushishi uchun moʻljallangan maxsus teshiklar va gumbazida bir nechta tuynuklar mavjud. Bino ganch qorishmasi va pishiq gʻishtdan qurilgan. Gʻishtlar ustiga saksovil bilan qoʻshib

yondirilgan ko‘mir qatlami yozilib, uning ustiga uch qavat tuya junidan tayyorlangan kigiz, so‘ng pardozlangan uch qavat mol terisi yopilgan, uning ustidan g‘isht terilgan va ganch bilan suvab tashlangan.



Sardoba darvozalaridan tashqari, suv tushishi uchun mo‘ljallangan maxsus teshiklar va gumbazida bir nechta tuynuklar mavjud. Bino ganch qorishmasi va pishiq g‘ishtdan qurilgan.



G'ishtlar ustiga saksovu bilan qo'shib yondirilgan ko'mir qatlami yozilib, uning ustiga uch qavat tuya junidan tayyorlangan kigiz, so'ng pardozlangan uch qavat mol terisi yopilgan, uning ustidan g'isht terilgan va ganch bilan suvab tashlangan. Bu holat bir necha marta takrorlangan. Bunda saksovu suvni tuzlardan tozalashda filtr vazifasini bajargan bo'lsa, ganch, pishiq g'isht va mol terisi suvning yerga ko'p miqdorda singib ketishidan himoya qilgan.



Davlat muhofazasiga olingan Qorovulbozor sardobasida [2018—2019-yillarda](#) respublika byudjet mablag'lari hisobidan konservatsiya, restavratsiya va obodonlashtirish kabi ishlar olib borilgan.



Bugungi kungacha yetib kelgan. Qorovulbozor sardobasi, Bo`zachi sardobalari bizga tarixning inoyati. Bu noyob va nodir yodgorliklarni asrab-avaylash, ularni kelgusi avlodga meros sifatida qoldirish bugungi avlod uchun ham farz, ham qarz.

Adabiyotlar

1. **Arminiy, Vamberi.** Buxoro yoxud Movorounnahr tarixi : - Sardoba – o`tmishning jonli gunohi. – Toshkent. : Info Capital Group. 2019. – B. 32-34.
2. **Boytullayev, Rashid.** Moziy daftaridan sahifalar: axborotlar, tadqiqotlar, maqolalar / R. Boytullayev, Toshkent. : “O`zbekiston” . 2 010. – B. 48-51.
3. **Turdiyev, M.** Buxoro bo`ylab sayr : - Buxorodan Qorovulbozor bo`ylab sayohat. – Buxoro. : 2012. B. 69 – 70 b.
4. **Soliyev, B.** Sahrodagi mo`jiza : Qorovulbozor tumani o`tmishi va buguni haqida lavhalar: - Toshkent . : “Sharq” , 2014. 42 – b.
5. **Husenov, S.** Chor bakr : sardoba qadimiy yodgorlik / Mas`ul moharrir : N. Komilov – Toshkent. : “Sharq” , 2001. – 144 b.
6. **Soliyev, B.** Buxoro neftni qayta ishlash zavodi : Qorovulbozr tumani shahri yaqinida joylashgan qadimiy sardoba – Toshkent. : Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – B. 64 – 65 b.
7. **Muiniy, R.** Buxoro tarixi : Qorovulbozor qasidasi – Buxoro. 2005. – 82 b.
8. **Murod Normurodov.** Jannat o`lkam : Qorovulbozor sardobasi – Buxoro. 2012. - 40 b.
9. **Sadriddin Salim Buxoriy.** Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari : buyuk ipak yo`llari ko`hna sardoba – Toshkent. : 2015. 360 b.
10. **Qahramon Rajabov.** Qorovulbozor tumani tarixi : Qorovulbozor tuman qadamjosi – Toshkent. : “ Tafakkur” 2015 – 48 b.

11. **Жуманазар, А .** Бухоро таълим тизими тарихи [Матн] / А. Жуманазар – Тошкент: Академинашр; 2017. – 592 б.
12. **Sadriddin Salim Buxoriy.** Buxoroning tabarruk ziyoratgohlari : buyuk ipak yo`llari ko`hna sardoba – Toshkent. : 2015. 360 b.

Vaqtli matbuot nashrlari

13. **Soliyev, B.** Buxorodan Qorovulbozor sardobasiga sayohat : [Qorovulbozor qadimiy qadamjosiga sayohat] / B. Soliyev // Qorovulbozor tongi. – 1997. – 6 - iyun . – B. 2.
14. **Soliyev, B.** Qorovulbozor: olis va yaqin yillar : [Qorovulbozor sardobalari haqida] / B. Soliyev // Qorovulbozor tongi. – 1999. - 12 - may. – B. 2.
15. **Soliyev, B.** Qorovulbozor qasidasi : [“Sahrodagi mo`jiza” kitobining taqdimoti haqida] / B. Soliyev // Qorovulbozor tongi. – 2000. - 12 - may. – B. 1.
16. **O`rinov, Sh.** Buyuk ipak yo`llarida ko`hna sardobalar : [Qorovulbozor sardobalarining barpo etilishi tarixi haqida] / Sh. O`rinov // Qorovulbozor tongi. 2002. – 2 fev. – B. 2.
17. **Солиев, Б.** Қоровулбозор : олис ва яқин йиллар : [Қоровулбозор сардобаси тарихимизни бизни эслатувчи ноёб ёдгорлиги ҳақида] / Б.Солиев // Қоровулбозор тонги. 1999. – 20 ноя. – 2. В.
18. **Солиев, Б.** Қоровулбозор тарихини ўрнатайлик : [Қоровулбозор тарихи ҳақида] / Б.Солиев // Қоровулбозор тонги. – 1999. – 5 ноя. – 3. В.
19. **Солиев, Б.** Қоровулбозор қасидаси : [туманимиз тарихи яқин ўтмиш] / Б. Солиев // Қоровулбозор тонги. – 1999. – 6 март.- 4. В.
20. **И. Иброҳимов.** Саҳродаги мўъжизаси : [Қоровулбозор тумани ўтмиши ва бугуни ҳақида ҳикоя қилувчи лавҳалардан иборат китоб ҳақида] / И. Иброҳимов // Қоровулбозор тонги. – 1999. – 29 апр. – 2. Б.
21. **Солиев, Б.** Қадим карвон йўлларида : [Қоровулбозор тарихи ҳақида] / Б. Солиев // Қоровулбозор тонги. – 2018.–18 янв. – 4. Б.

- 22. Жалмухамедов, Ж. Жексембаев. М.** Олис йиллар садоси : [беш йиллик тарихи ҳақида] / Ж. Жалмухамедов, М. Жексембаев // Қоровулбозор тонги. – 1998. – 1 июнь. – 2. Б.
- 23. Soliyev, B.** Qorovulbozor qasidasi : [Qorovulbozor sardobalari haqida] / B. Soliyev // Qorovulbozor tongi. – 2000. - 20 - fev. – B. 1.
- 24. Soliyev, B.** Qorovulbozor sardobasi : [Qorovulbozor sardobalari kelib chiqishi tarixi haqida] / B. Soliyev // Qorovulbozor tongi. – 2002. - 20 - apr. – B. 1.
- 25. Остонов, А.** 30 ёшинг муборак бўлсин, азиз истиқлол : [Мустақилликнинг 30 йиллиги ҳамда, Қоровулбозор тумани тарихи ҳақида] / А. Остонов. // Қоровулбозор тонги. – 2021.– 6 сент. – 4. Б.
- 26. Шодиев, С.** Садоқат мўъжизаси : [журналист ва ёзувчи Баҳром Солиев ҳаёти ва ижоди ҳақида] / С. Шодиев // Қоровулбозор тонги. – 2025.– 27 - июль. – 4. Б.
- 27. Солиев, Б.** Қадим қарвон йўлидаги маскан : [Сардобалар – мозий мўъжизаси] / Б. Солиев // Қоровулбозор тонги. – 2026. – 15 янв. 4-5 Б.